

UO•K (UDC, УДК):82.091

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT TAYR” HAMDA JEFRI CHOSERNING “KENTERBERI HIKOYALARI” ASARLARI QIYOSIY- TIPOLOGIK TAHLILI⁴

Saydaliyeva Gulchehra Saydumarovna

Namangan davlat chet tillar instituti

Ilmiy izlanuvchi

Namangan, O‘zbekiston

saydaliyeva1983@gmail.com

Orcid ID: 0009-0003-2059-2242

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot Alisher Navoiyning “Lison ut-Tayr” dostoni va Jefri Choserning “Kenterberi hikoyalari” asarlarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Sharq va G‘arb mumtoz adabiyotining noyob durdonalari hisoblangan bu asarlar syujet qurilishi, badiiy kompozitsiyasi, shuningdek, ijtimoiy va axloqiy g‘oyalarining o‘xshashlik hamda farqlarini o‘rganish maqsadini ko‘zda tutadi. Tadqiqotning bosh maqsadi ushbu ikki asarni qiyoslash orqali o‘zbek va ingliz adabiyotlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash hamda syujet tuzilishi va ramziy tasvirlar orqali adiblarning falsafiy va axloqiy qarashlarini tahlil qilishdir. Navoiy “Lison ut-tayr”da tasavvuf adabiyotining ramziy va falsafiy mohiyatini aks ettirgan bo‘lsa, Choser “Kenterberi hikoyalari”da o‘rta asr ingliz jamiyatini realizm asosida keng tasvirlagan. Har ikki ijodkor o‘z asarlarida avvalgi adabiy an‘analardan ilhom olib, davrning ijtimoiy va ma‘naviy masalalarini yuqori badiiy mahorat bilan ifodalashga erishgan. Ushbu tadqiqotda asarlarning syujet kompozitsiyasi, qahramonlar tizimi, badiiy uslub va mavzulari, shuningdek, ramziy va majoziy obrazlarning o‘ziga xos va umumiy jihatlari tahlil qilingan. Mazkur izlanish buyuk adiblarning badiiy merosini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning madaniy va adabiy taraqqiyotdagi o‘rni hamda ahamiyatini kengroq yoritishga xizmat qiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Komparativistika, qoliplovchi hikoya, ziyorat, ruhiy kamolot, tasavvufiy qarashlar, ijtimoiy tenglik, rohib, indulgensiya.

Received: November 5, 2024

Accepted: December 1, 2024

Available online: March 1, 2025

⁴ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Saydaliyeva G.S. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” hamda Jefri Choserning “Kenterberi hikoyalari” asarlari qiyosiy-tipologik tahlili. // *Komparativistika (Comparative Studies)*. — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 41-55

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ «ЯЗЫК ПТИЦ» И ДЖЕФФРИ ЧОСЕРА «КЕНТЕРБЕРИЙСКИЕ РАССКАЗЫ»

Сайдалиева Гулчехра Сайдумаровна

Научный исследователь

Наманганский государственный институт иностранных языков

Наманган, Узбекистан

saydalieva1983@gmail.com

Orcid ID: 0009-0003-2059-2242

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В данной работе проводится сравнительный анализ поэмы Алишера Навои «Язык птиц» и произведения Джеффри Чосера «Кентерберийские рассказы». Эти шедевры классической литературы Востока и Запада рассматриваются с точки зрения их сходств и различий на уровне сюжетной структуры, художественной композиции, а также социальных и нравственных идей. Цель исследования состоит в том, чтобы выявить взаимосвязь между узбекской и английской литературой через сравнительный анализ этих произведений, а также изучить философские и нравственные взгляды авторов, выраженные через символические образы и сюжетные построения. В «Языке птиц» Навои отразил философскую и символическую суть суфийской литературы, в то время как Чосер в «Кентерберийских рассказах» реалистично изобразил средневековое английское общество. Оба автора, вдохновляясь наследием предыдущих литературных традиций, с высоким мастерством передали социальные и духовные проблемы своего времени.

Исследование охватывает сюжетные особенности, систему персонажей, художественные приемы и тематику произведений, а также их общие и отличительные черты в создании символических и аллегорических образов. Статья способствует более глубокому пониманию роли и значения творческого наследия великих писателей в развитии мировой культуры и литературы.

Компаративистика, обрамление, паломничество, духовное развитие, суфизм, социальное равенство, монашество, индульгенция.

COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF ALISHER NAVOI'S "THE LANGUAGE OF BIRDS" AND GEOFFREY CHAUCER'S "THE CANTERBURY TALES"

Saydaliyeva Gulchehra Saydumarovna
Researcher

Namangan State Institute of Foreign Languages
Namangan, Uzbekistan

saydaliyeva1983@gmail.com

Orcid ID: 0009-0003-2059-2242

ABSTRACT

This research is dedicated to a comparative analysis of Alisher Navoi's work "Lison ut-Tayr" ("The Language of Birds") and Geoffrey Chaucer's "Canterbury Tales". These masterpieces of Eastern and Western classical literature are explored in terms of their narrative structure, artistic composition, as well as the similarities and differences in their social and moral ideas. The primary aim of this research is to investigate the correlation between Uzbek and English literatures by conducting a comparative analysis of these two works. Additionally, it seeks to analyze the philosophical and ethical perspectives of the authors through an examination of their narrative structures and symbolic imagery. In "Lison ut-Tayr", Navoiy reflects the symbolic and philosophical essence of Sufi literature, while in "The Canterbury Tales", Chaucer portrays medieval English society through realism. Both authors, drawing inspiration from previous literary traditions, skillfully express the social and spiritual issues of their time.

The research examines the narrative structure, character development, artistic techniques, and thematic elements of the works, as well as the distinct and shared qualities of their symbolic and allegorical imagery. This study aims to provide a broader understanding of the significance and role of the literary heritage of these great authors in the cultural and literary development of their respective societies.

KEY WORDS

Comparativism,
frame narrative,
pilgrimage, spiritual
development, Sufi views,
social equality, monk,
indulgence.

KIRISH

Adabiyot tarixining ajoyib obidalarini yangi zamon kishisining estetik kamolotida, estetik qarashlarining shakllanishida, mafkuraviy qurollanishida ulkan ahamiyatga ega. Har bir xalq, o'z madaniy va adabiy merosiga ko'z qorachig'idek munosabatda bo'ladi, uni kelgusi avlodlar uchun avaylab asraydi. O'tmishni yaxshi ang'lay bilish va uni chuqur his etish hozirgi zamon bilan hamnafas bo'lishda cheksiz ahamiyatga molikdir. (Murtazoyev B., 1991, 1)

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" hamda Jefri Choserning "Kenterberi hikoyalari" asarlari o'zbek va ingliz mumtoz adabiyotining nodir durdonalari hisoblanadi. Ushbu asarlarni taqqoslab o'rganish ko'p asrlik o'zbek-ingliz adabiyotining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, dostonlarning syujet tuzilishidagi uyg'unlik va kompozitsion yaratilishdagi muvofiqliklarni tahlil qilish, ikki xalqning o'zaro adabiy aloqalarini va bir biriga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishdan iborat. Ushbu izlanishning asosiy maqsadi shuni tashkil etadi.

ASOSIY QISM

Ingliz adabiyoti otasi Jefri Choser "*Kenterberi hikoyalari*" asari orqali dunyoga tanilgan. Bunday asar yaratish g'oyasi Choserga buyuk Italyan yozuvchisi Jovanni Bokkaoning "*Dekameron(O'n kun)* asari mutolaasi sababli paydo bo'lgan. (Benson L., 1987, 3) O'z o'rnida Alisher Navoiy ham "*Lison ut-tayr*" dostonini Fariddin Attorning "*Mantiq ut-tayr*" asaridan ilhomlanib yaratgani hammaga ma'lum. (Navoiy A., 2022, 27) Ikeler asar ham "*qoliplovchi hikoya*" tarzida yozilgan, inson hayotini ma'naviy, ijtimoiy va axloqiy normalarini botiniy va zohiriy yo'llardan foydalanib ko'rsatib bergan, sayohat, yo'ldoshlik, va ma'rifatga intilish g'oyalari orqali jamiyatni va inson ruhiyatini aks ettirishga qaratilgan noyob durdona asarlardan hisoblanadi.

"Kenterberi hikoyalari" qadimgi ingliz adabiy tili London shevasida yozilgan bo'lib, "Muqaddima" (prolog) 22 ta she'riy va 2 ta nasriy novelladan, bitta qahramon muqaddimasi va har bir hikoyalar alohida bob sifatida tartiblangan, 17,000 baytdan tashkil topgan umumiy hikoya bilan birlashtirilgan asardir. (Benson L., 1987, 4)

Muqaddima (prolog) qismida yigirma to‘qqiz ziyoratchi London shahridan Kenterberi Avliyo Tomas Beket ibodatxonasiga ziyorat qilish uchun yo‘lga chiqadi. Choserning g‘oyasiga ko‘ra asar mazmunini yanada boyitish maqsadida hikoya aytish musobaqasi joriy etilib, musobaqa shartlariga ko‘ra, har bir ziyoratchi safar davomida o‘z shaxsiyati, e‘tiqodi va ijtimoiy mavqeini aks ettiruvchi to‘rtta hikoya (ikkitasi Kenterberiga borishda va ikkitasi qaytishda) so‘zlab berishi taklif etiladi. Ushbu hikoyalar xilma-xil janr va uslublarni qamrab olib, ritsarlik romanlari, axloqiy allegorik, hajviy va diniy hikoyalar kabi mavzularni o‘z ichiga oladi. Ziyoratchilar o‘rtasidagi dialoglar hikoyalar orasidagi “bog‘lovchi” vazifasini bajarib, qahramonlarning xarakter va xulqlarini yanada teranroq ochib beradi. Shu jihatdan asarda Choserni har bir qahramonining o‘ziga xosligi orqali haqiqiy ijtimoiy prototiplarga asoslangan obrazlarni yaratgani e‘tirofga loyiqdir. E‘tiborga molik yana bir jihat shundaki, muallif o‘zini “Garri Belliy” ismli Tabard mehmonxonasi sohibi qiyofasida tasvirlab, barcha ziyoratchilarni yig‘ib, hikoya musobaqasi qoidalari va safar rejasini belgilaydi. (Benson L., 1987, 4)

Lison ut-tayr dostonida esa Alisher Navoiy turli xil qushlarning donolik va zukkolik ramzi bo‘lgan Hudhud boshchiligida Semurg‘ni izlashga bo‘lgan safarini tasvirlaydi. Hudhud barcha qushlarni bir maqsad sari birlashtiruvchi rahbar sifatida namoyon bo‘lib, Semurg‘ni izlash jarayoni ularga hayotning chuqur falsafiy mazmunini ochib beradi. (Navoiy A., 2022, 252).

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari turkiy tilda yaratilgan bo‘lib, kompozitsion jihatidan 193 bob, 3598 baytdan iborat, 1.Kirish 13 bob (1-13 boblar) 2. Qushlar sayri bilan bog‘liq asosiy syujet – 156 bob (14 – 169-boblar). 3. Lirik qahramon munajoti – 19 bob (170 – 188-boblar). 4. Xulosa – 5 bob (189 – 193-boblar) iboratdir. (Olimov S., 2023, 16)

Barcha boblar alohida epizodlarni, savol javoblarni va kichik hajmli hikoya yoki masalalarni o‘z ichiga olgan. (Mallayev N., 1976, 511)

Asar muqaddimasi birinchi bob, Allohga munajot-hamd ikkinchi bob; Muhammad sallalolohi alayhi vasallamga vasf-na’t uchinchi bob; Me’rojnoma na’t to‘rtinchi bob; Abu Bakr Siddiq ta’rifi beshinchi bob; hikoyat oltinchi bob; Umar

Foruq ta’rifi yettinchi bob; hikoyat sakkizinchi bob; Xalifa Usmon ta’rifi to’qqizinchi bob; hikoyat o’ninchi bob; Xalifa Ali ta’rifi o’n birinchi bob; hikoyat o’n ikkinchi bob; Farididdin Attor ta’rifi o’n uchinchi bobda keltiriladi. (Navoiy A., 2022, 227)

Va undan keyingi boblar Semurg‘ ta’rifi, Semurg‘ni izlash yo‘lidagi sarguzashtlar, vodiylar ta’rif-tavsifi, hikoyatlar munojotlar va xotimaga bo‘linadi. Choserning asarida o‘rta asr jamiyatining turli jabhalarida faoliyat olib borayotgan yigirma to‘qqizta kasb egalari yigirma to‘rtta hikoya orqali ifodalansa, Navoiyning asarida Semurg‘ni izlashga otlangan o‘ttizta qushlar munozara va muhokamasi 193 bob va 63 hikoyada tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Garchand bu ikki asar bir biridan uzoq makonda yaratilgan bo‘lsa-da, syujeti jihatdan bir biriga yaqinligini quyidagi ta’rifdan ko‘rishimiz mumkin. “Kenterberi hikoyalari” o‘rta asrlardagi mumtoz she’riy doston bo‘lib, u ayambic pantametr (iambic pentameter)⁵ shoir o‘zi asos solgan she’riy vaznda yaratilgan. Bu vazn har satrda o’n hijoli, beshta ayambik (bir urg‘uli va bir urg‘usiz hija) bo‘lgan ritmik sxemada hamda qofiyalashgan ayambic pantametrdagi kupletlar (ikkita satr) shaklida taqdim etilgan⁶. “Lison ut-tayr” asari aruzning sodda va ravon o‘zbek tiliga juda mos tushadigan ramali musaddasi mahzuf (maqsur) foilotun foilotun failun (foilun) bitilganligi Navoiyshunos olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Taqte’si: – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~)⁷.

“Kenterberi hikoyalari” umumiy muqaddima bilan boshlanadi (The General Prologue), ushbu muqaddimada qahramonlarning ta’rifi va faoliyati bilan tanishishimiz mumkin. Choser asardagi hikoyalarning tartibini, ziyoratchilarni tasvirlashda O‘rta asrlar ingliz jamiyatida ijtimoiy qatlamlar ketma-ketligini saqlab, eng yuqori mavqega ega bo‘lgan qahramonlar yuqoridan quyiga qarab joylashtirganligini kuzatish mumkin. Larri D. Bensonning fikriga ko‘ra, *“asardagi ziyorat mavzusi nafaqat muqaddas ibodatxona tomon sayohatni, balki inson hayotining butun bir sayohatini aks ettiradi. Unda o‘rta asrlarga xos bo‘lmagan*

⁵ <https://poemanalysis.com/poetic-meter/iambic-pentameter> (19.09.2024)

⁶ <https://facetia.ru/node/574> (19.09.2024)

⁷ <https://uzhurriyat.uz/2020/02/05/Lison-ut-tayr-sari-sayr/> (19.09.2024)

holda jamiyatning turli qatlamlari vakillari birlashib safarga o'tlanadi, bu esa yaratuvchi oldida barcha insonlarning teng ekanligini e'tirof etish sanaladi". (Benson.L.,1987, 4) "Kenterberi hikoyalari" realistik asar bo'lib, 14-asr ingliz hayotining Uyg'onish davri ensiklopediyasini va shu bilan birga o'sha davrning she'riy janrlari ensiklopediyasini ya'ni: saroy muhabbati hikoyasi, kundalik hikoya, lay-qisqa lirik rivoyat, satirik-masal hikoya, xalq balladasi, ritsarlarning sarguzasht she'riyatining parodiyasi va she'rlardagi didaktik hikoyalari orqali ingliz adabiyotini boyitgan. Asarda birinchi bo'lib "*Ritsar hikoyasi*" (The Knight's Tale) berilganligining sababi, ritsar- o'rta asrlarda G'arbiy va Markaziy Yevropada yoshligidan jasorat, mardlik, burchga sadoqat, ayollarga nisbatan oliyjanoblik ruhida tarbiyalangan jangovar feodal⁸. O'rta asr jamiyatida eng oliy darajadagi hurmatga sazovor, jasorat va odillik timsoli hisoblanadi. Ritsarning hikoyasi boshlang'ich o'rinda kelgani uning yuksak obro'yini ko'rsatadi va bu O'rta asr ritsarlik romantikasiga mos keladigan sevgi va sadoqat mavzularini tarannum etadi. Shu tariqa, Choser asarning boshida ijobiy va adolatli ruhni kitobxonga etkazadi hamda keyingi qahramonlar hikoyalariga tayyorlaydi. Bu hikoya kabilarga ritsarlik romantikasini o'zida aks ettiruvchi Janob Topas haqida hikoya (Choser's tale of sir Topas), Batlik tikuvchi hikoyasi (The Wife of Bath's Tale) Javonbekning hikoyasi (The Squire's Tale) va Franklin hikoyasini (The Franklin's Tale) keltirish mumkin.

Lison ut-tayr dostoni murakkab falsafiy doston bo'lib, unda Navoiy majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi, shu bilan birga u real hayot lavhalarini, kishilarning xatti-harakati, fe'l-atvoridagi ijobiy va salbiy xususiyatlarni tasvirlaydi. (Mallayev N., 1976, 508) Dostondagi hikoyatlarni mavzusiga ko'ra ijtimoiy-siyosiy va falsafiy, din va tasavvuf arboblari, axloqiy-tarbiyaviy va sevgi-muhabbat mavzusidagi hikoyatlarga ajratish mumkin.

⁸ <https://izoh.uz/uz/word/ritsar> (19.09.2024)

“Kenterberi hikoyalari”da har bir qahramon individual xususiyatga, beqiyos qiyofaga, kiyinish tarziga, muomala madaniyatiga va orta asr jamiyatining quyi yoki yuqori qatlamiga mansubligi go‘zal tarzda ochib berilishiga guvoh bo‘lamiz.

Choser asaridagi ziyoratga chiqqan qahramonlar jamiyatning turli qatlam vakillari bo‘lib ular orasida oddiy tegirmonchi, huquqshunos, oshpaz, tikuvchi va avliyo ruhoniylar ham mavjud. Nazariy jihatdan, bu obrazlar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlari: ruhiy poklanish, qalb sakinatiga erishish, muqaddas dargohda gunohlarga tavba qilishdan iborat bo‘lib, bunday sayohatga mos keladigan ba’zi ibratli yoki axloqiy hikoyalarni aytib berishlari kerak edi. Ammo ziyorat masalasiga o‘rta asr nuqtayi nazaridan yondashadigan bo‘lsak, oddiy omi xalq yuksak ma’naviy kamolot haqida hech qanday bilimga ega emasligi va doimo boylar tomonidan kamsitilib kelinishi va quyi sinf vakillari yuqori sinf vakillariga xizmat qilishlari orqali o‘z ehtiyojlarini qondirishlarini anglash mumkin. Masalan, tegirmonchi ijtimoiy va ruhiy jihatdan o‘ziga mos bo‘lgan, o‘z dunyoqarashi doirasida fikrlashi mumkinligini tushunish mumkin.

Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida turli xil obrazlar keng ko‘lamda yaratilgan. Shoir o‘zining g‘oyaviy maqsadi va estetik ideallarini aks ettirish maqsadida romantik, realistik, majoziy va ramziy obrazlarning rang-barang namunalarini yaratishga intilgan. Navoiy qushlar obraziga insoniy fazilatlar bag‘ishlab, badiiy shartlilikka asoslangan yangi majoziy obrazlarni jonlantirgani ham diqqatga sazovor. Dostonda ko‘tarilgan ko‘plab masalalar XV asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo va Xurosonda hukm surgan ma’naviy-axloqiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa obrazlarning realistik xususiyat kasb etishiga olib kelgan. “Lison ut-tayr”da an’anaviy obrazlardan tashqari, real hayotga oid insoniy obrazlar ham uchraydi. Shu bilan birga, doston Navoiyning satirik va yumoristik ijodkori sifatidagi iste’dodini yangi qirralari bilan namoyon etadi. U satirik va yumoristik obrazlarning o‘ziga xos va takrorlanmas namunalari orqali shoir sifatidagi badiiy mahoratini ko‘rsatgan. Shuningdek, o‘zbek adabiyotida yangilik bo‘lgan tragikomik obrazlarning ham chiroyli namunalari asarda uchraydi. Masalan: Shoh Ibrohim

Adham, Xoja Muhammad Porso, Shayx Najmiddin Kubro, Arastu, Aflotun va boshqa dunyoga mashhur shaxslar. (Navoiy A., 2022, 144)

“Kenterberri hikoyalari”dagi umumiy muqaddimada asar personajlari ijtimoiy guruhlar va kasblar bo'yicha joylashtirilgan: ritsar, uning o'g'li qurolbardori va yer egasi, pomesnik, mulk boshqaruvchisi, tegirmonchi, dehqon — bular yer bilan bog'liq bo'lgan odamlar. Avliyo ota, rohiba, ikkinchi rohiba va uning yonida uch ruhoni, qishloq ruhoniysi, cherkovning ikki xizmatchisi, cherkov sudi chaqiruvchisi va indulgensiya sotuvchisi: bular — din cherkov vakillaridan bo'lgan insonlar. Savdogar, kemachi, beshta gildiya va ularning oshpazi, Batdan kelgan boy shaharlik ayol, qahvaxona sohibi, iqtisodchi, Kanon-alkimyogarning xizmatkori bular — shaharlik odamlar. Yurist, shifokor, Oksfordlik talaba, shoir Choser: bular — aqliy mehnat, ilm sohiblari orqali Angliyani jonli, rang-barang, qonli, quvonchli tarzda ko'rsatib beradi.

“Lison ut-tayr” teran allegorik asar bo'lib, unda chuqur falsafiy, ma'naviy-axloqiy ma'nolarni ifodalovchi ko'plab allegorik unsurlar mavjuddir. Ularning jumlasiga Qushlarning Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Hayrat, Tavhid, Faqr fano vodiylari bo'ylab Semurg' sari sayohatini insonning ilohiy haqiqat, ma'rifat va o'zligini anglash yo'lidagi ruhiy izlanishlarining allegoriyasi sifatida ko'rish mumkin. Qushlarning bu vodiylar bo'ylab sayohatining har bir bosqichi ma'rifat yo'lida duch keladigan turli ma'naviy-axloqiy qiyinchiliklarni ifodalaydi.

Hudhud — qushlarning yetakchisi va yo'l boshchisi sifatida, donolik, ruhiy tushuncha va ilohiy yo'l-yo'riq uchun allegoriya vazifasini bajaradi. Hudhud, Semurg'ni izlovchilarni o'z-o'zini kashf qilish va ma'rifat yo'lga olib boradigan ruhiy murabbiy yoki yo'l boshchini ifodalaydi.

Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Hayrat, Tavhid, Faqr fano qushlar bosib o'tadigan yetti vodiy ma'naviy kamolot va ma'rifatga erishish uchun qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish kerakligini anglatadi. Bu vodiylar poklanish, muhabbat, tushunish, ajralish, birlik, hayrat va yo'q bo'lish bosqichlari sifatida talqin qilinishi mumkin.

Asarning asosiy personajlaridan biri qushlar izlanishlarining yakuniy maqsadi Semurg' ilohiy haqiqatni, yakuniy voqelikni va ma'naviy yuksalishning cho'qqisini ifodalaydi. Bu ilohiy borliq yoki izlovchilar erishmoqchi bo'lgan yakuniy anglash uchun allegoriya bo'lib xizmat qiladi.

Asardagi har bir qush o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular inson tabiatining turli tomonlarini, ma'naviy mayllarini, axloqiy fazilatlarini yoki illatlarini ifodalaydi. Bu belgilar insoniy holatning allegorik timsoli bo'lib xizmat qiladi va odamlar o'zlarining ruhiy sayohatlarida bo'lishi mumkin bo'lgan turli yo'llarni ifodasidir. (Saydaliyeva G., 2024, 190) "Lison ut-tayr" asarida tabiat olami va uning unsurlari allegorik timsollarga boy bo'lib, ko'pincha ruhiy sohani, hayot va o'lim davrlarini, butun borliqning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Asarda Alisher Navoiy o'zining ustози Farididdin Attor timsolini Qaqnus sifatida, (Lison ut-tayrdagi qushlardan biri) bu qushning tumshug'ida ko'pgina teshiklari bo'lib, ular orqali har xil yoqimli kuy va ohanglar chiqargan. Qaqnusning jufti bo'lmas ekan, umr bo'yi cho'p, o'tin yig'ib, umrining so'ngida juda chiroyli va uzoq kuylar ekan, uning jozibali sayrashidan o'zi yig'gan o'tinga o't ketib, o'zi ham, o'tin ham kuyib kul bo'lar ekan. O't kulidan yangi "Qaqnusbacha", ya'ni uning bolasi chiqib, u ham o'z yo'lida otasi qilgan ishlarni davom ettirar ekan. Aynan shu Qaqnus qushi Farididdin attor obrazi bo'lib, Alisher Navoiy uni avvalgi qushga o'xshatadi. Chunki Attor ham umr bo'yi kuylab yashagan, hayoti davomida ko'plab asarlar yaratgan chin dildan xalqqa manzur bo'ladigan turli mavzularda asarlar yaratgan va hayotining so'ngida kuylab o'zi ham kul bo'lib yongan. "Lison ut tayr" asarida Alisher Navoiy *"Men uni ota, o'zimni o'g'il deb atamay, u oliy martabali shoh, men uning bandasi, quliman. Chunki avval u bu olovda kuyib, barcha olamga o't soldi. So'ngra bu o'tdan bironta kimsa menchalik kuyib- yonmadi, olamni o'rtovchi va dunyoni yorituvchi shu'la bo'lib porlamadi. Qush tili vositasida gulxan paydo qilib, ham o'zimni, ham elning kul bo'lishini bildim."* — deb e'tirof etadi. (Navoiy A., 2022. 211) "Kenterberri hikoyalari"da allegoriya muhim o'rin egallab, Choser ularni axloqiy saboqlar berish, ijtimoiy muammolarni ko'tarish va insonga hos bo'lgan kamchiliklarni ko'rsatish uchun qo'llaydi. Bensonning fikriga ko'ra asar ziyoratchilarni safarga chiqishlari bu

insonlarni jannat sari yo‘lga chiqishi bilan qiyoslanadi. Dostondagi barcha allegorik hikoyalarda muallif kitobxonga yetkazmoqchi bo‘lgan yashirin ma’no va xabar mavjudligini kuzatish mumkin. Masalan: — Induligensiya sotuvchisining hikoyasi ochko‘zlikka qarshi axloqiy allegoriya sifatida xizmat qiladi. Uchta do‘st boylikka bo‘lgan hirs tufayli bir-birini o‘ldirishadi, shu bilan Choser “Barcha yovuzliklar ildizi – ochko‘zlik” shiorini tasdiqlaydi. Bu hikoyada do‘stlar va yashiringan xazina insonning ochko‘zligi va uning halokatli oqibatlarining ramzi sifatida ko‘rsatiladi.

“Monastir rohibasining hikoyasi” hayvonlar orqali insonning xatti-harakatlarini ramziy tarzda tasvirlaydigan bir masal bo‘lib, Ezop masallari singari saboq berish — asosiy mazmun mohiyatini tashkil etadi. Hikoya kambag‘al bir beva ayolning fermasida bo‘lib o‘tadi. Ushbu fermada Chantekler-o‘z qiyofasi va qichqirishi bilan ortiqcha faxrlanadigan takabbur xo‘roz yashaydi. Kibrlanishi uni e’tiborsiz qiladi va oxir-oqibat tulki tomonidan ushlanadi. Tulki esa orqasidan quvib kelayotgan hayvonlarni masxara qilishga urinishdan chalg‘ib, xo‘roznig og‘zidan tushirib yuboradi va o‘ljasidan ayriladi. Hikoyadan olinadigan saboq shundaki, kamtarona va sodda hayot, beva ayolning hayotiday, kibrlanishdan ko‘ra ko‘proq baxt olib keladi. Hayvonlar misolida tasvirlangan kibr va nokamtarlikni kulgilioq qilib ko‘rsatadi. Go‘yo o‘z hayotida kibrga berilgan odamlar, qichqirig‘i bilan o‘zini maqtaydigan xo‘roz singari ahmoqona ko‘rinadi. (Benson L., 1987, 18)

Asardagi Oksfordlik (Clerk’s tale) talaba “Sabrli Griselda” hikoyasiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak bu hikoya insonning sabr matonati va itoatkorligi haqida bo‘lib uning ildizi muqaddas kitob “Injil”dagi “Ayub kitobi”ga ishora sifatida e’tirof etiladi. Ingliz adabiyotiga ham an’ana sifatida “Keterberi hikoyalari” orqali kirib kelgan va Jovanni Bokkachoning “Dekameron” asaridagi so‘nggi yuzinchi hikoya sifatida keltirilgan “Sabrli Griselda” hikoyasida, fransuz va italyan adabiyotida esa, Petrarkaning “Historia Griseldis” asarida nashr etilgan. Shuningdek, u Kristin de Pizanning “Xonimlar shahri kitobi”da, Sharl Perroning “Sabrli Griselda” ertagida ham keltirilgan. (Boccaccio G., 2018)

Sabr og‘ir vaziyatlarda nafsni tiyishda, shoshilish va hatolarning oldini olishda, g‘azabni qo‘zg‘aydigan xolatlar sodir bo‘lganda o‘zini tutib turishda,

moddiy va ma'naviy yaxshiliklarga erishish yo'lida duch kelinadigan jismoniy va ruhiy mashaqqat va alamlarga chidashda yordam beradi. Sabr ikki xil bo'ladi: *Birinchisi* — jismoniy sabr. U og'ir va mashaqqatli ishlarni va ibodatlarni chidam bilan ado etishda ko'rinadi va badanga yetgan ziyon-zahmatga, og'ir bemorlikka jarohatga, og'riqqa chidashda namoyon bo'ladi *Ikkinchisi*, ma'naviy sabr. Bunda ruh va havoyi nafs ishtaha qilgan narsalarga sabr qilinadi. Mana shu sabrning eng kuchlisidir. Havoiy nafsga muvofiq keladigan sabr sihat-salomatlik, molu dunyo, obro', mansab, va yoru do'stlar kabi masalalarga tegishlidir. Yaxshi kishi mol-dunyoga ruju' qo'ymaydi, maishatparastlikka berilmaydi, o'yin-kulgi, ko'ngil xushi ketidan doimiy quvmaydi, havoyi nafs ishtaha qilgan hollarda sabr qiladi. (Saydaliyeva G., 2023, 254) "Sabrli Griselda" allegorik hikoya bo'lib Griselda o'z turmush o'rtog'iga turmushida itoat etishi ota uyidan ketib butunlay turmush o'rtog'ining qarmog'iga o'tishi, unga tayorlangan barcha sinovlarni yengishi tahsinga sazovordir. Graf Valtieri Griseldaning turmush o'rtog'i, zadogon yer egasi — Griseldaning sevgisi va sadoqatini sinash uchun uni ko'plab imithonlardan o'tkazadi, Griselda qadariga roziligi tufayli barcha mashaqqatlarni yengib o'tadi va oilasi bilan farovon hayot kechiradi. Hikoyadagi Griselda obrazi majoziy shaklda insonlarni anglatib, turmush o'rtog'i Valteri – hudo obrazida ishora bilan keltirilgan. Ayolga kelgan sinovlar bu hudoning bandalariga beriladigan sinovlari sifatida talqin etish mumkin. Griselda qashshoq bo'lishiga qaramasdan tashqi va ichki go'zallik sohibasi edi, u otasini uyini tashlab, Valterining qasriga ketadi, u yerda turmush o'rtog'iga chin dildan hizmat qiladi, ikkita - qiz va o'g'il farzand ko'radi. Farzandlari chaqaloqligidayoq otasi tomonidan qatl ettirilishga buyuriladi. Lekin bu qatl Griselda uchun sinov bo'lib, bolalar uzoq mamlakatga berib yuboriladi va Valterining uzoq qarindoshlari tomonidan voyaga yetkaziladi. Griselda boshiga tushgan bunday sinovga so'zsiz itoat etadi va hech qanday e'tiroz bildirmaydi. Ammo sinovlar davomiy bo'lib, Valteri keyinchalik boshqa yosh ayolga uylanmoqchi ekanligi ayolidan ko'ngli to'lmayotganili va ular ajrashishi kerakligini hammaga bildiradi. Griselda itoat bilan uzoq turmushi va xizmati evaziga hech narsa talab qilmasdan Valteri koshonasini tark etadi. Ma'lum muddatdan so'ng, Valteri

Griseldani to'yga tayyorgarlik qilish uchun xizmatga chaqiradi, ayol qalbi qon yig'lasada u barcha buyurilgan ishlarni bexato bajarib kelinni kutib oladi. Griseldaning qalbi tilka-pora bo'lsa-da, hojasiga bir og'iz ham e'tiroz bildirmaydi. Hikoya so'nggida yangi kelin aslida Griseldaning qizi, uning ukasi o'g'li ekanligi va ular onasining oldiga olib kelinganligi ma'lum bo'ladi. Insoniyatning hudo tomonidan belgilangan qazoyi-qadariga rozi bo'lishligi, e'tiroz bildirmasdan, isyon qilmaslik oxir-oqibat baxtga, va sakinatga yetishtirish masalasi nozik betakror tarzda ushbu hikoyada bayon etilgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" va Jefri Choserning "Kenterberri hikoyalari" asarlari bir-biridan uzoq geografik va madaniy hududlarda yaratilgan bo'lsa-da, ularning mazmuni va uslubida ko'plab o'xshashliklar mavjud. Har ikkala asar allegorik va didaktik mazmunga ega bo'lib, birida qushlar orqali insonning ma'naviy o'sishi va haqiqatni izlash jarayoni tasvirlangan bo'lsa, ikkinchisida ziyoratchilar hikoyalari orqali jamiyatning axloqiy, diniy va ijtimoiy muammolari yoritiladi. Navoiyning asarida qushlar donishmandlik va sabr haqida saboq bersa, Choserning ziyoratchilari o'z hikoyalari bilan hayotning turli qirralarini ochib beradi. Har ikkala asarda ham insonning ichki olami, xatti-harakati va jamiyatdagi o'rni keng tahlil qilingan. Navoiy insonning ma'naviy poklanish va ilohiy haqiqatga erishish yo'lini tasvirlasa, Choser o'z davrining turli ijtimoiy qatlamlariga mansub odamlarning fe'l-atvorini va ularning fazilat hamda kamchiliklarini ko'rsatadi. "Lison ut-tayr"da qushlarning safari insonning ma'naviy kamolotga erishish jarayonini ifodalasa, "Kenterberri hikoyalari"da ziyoratchilarning safaridan dunyoviy hayotning ramzi sifatida foydalaniladi. Ikkala asar ham jamiyatning ijtimoiy muammolari va dinning roli haqida mushohada yuritadi: Navoiyning asarida sufiylik g'oyalari ilgari surilgan bo'lsa, Choser diniy muassasalar va ruhoniylarning kamchiliklarini tanqid qiladi. Umuman olganda, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" va Jefri Choserning "Kenterberri hikoyalari" insonning ma'naviy va ijtimoiy hayotini o'rganishga qaratilganligi, didaktik yo'nalishi, turli xarakterlarni tasvirlash mahorati va hayotiy muammolarni

yoritishdagi yondashuvi bu ikki asarni o‘zaro yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, ular o‘zbek va ingliz madaniyatlarining boyligi va betakror jihatlarini aks ettirgan bebaho asarlar sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Муртазоев. Б.Х. «Алишер Навоий Саббаи Сайёр ва Хусрав Дехлавий Ҳашт беҳишт дostonларининг қиёсий таҳлили», Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-Термиз, 1991. № 08109 ФН.
2. Benson Larry D. “The Riverside Chaucer”, 3rd ed., Oxford University Press, 1987.
3. Алишер Навоий “Лисон ут-тайр”, Ёшлар матбуоти, 2022.
4. Олимов С.Х “Лисон ут-тайр”нинг қиёсий поэтикаси: синтез, назирaviйлик ва таржимaviйлик. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2023.
5. Маллаев Н.М “Ўзбек адабиёти тарихи”, биринчи китоб. Ўқитувчи нашриёти, Тошкент, 1976.
6. Олимов С.Х “Лисон ут-тайр” сари сайр. Hurriyat gazetasi. <https://uzhurriyat.uz/2020/02/05/Lison-ut-tayr-sari-sayr/>
7. Saydaliyeva.G. “The allegorical symbols and their translation in Lison ut-tayr by Alisher Navoi” News of the NUUz, 1(1.2.1), 190-193. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v1i1.2.1.1182>
8. Boccaccio G. Decameron, Day 10, Tale 10 (Italian, tr. into Mod. Engl.) (analogue of the Clerk’s Tale)". sites.fas.harvard.edu. Retrieved 2018-10-03.
9. “Légendes médiévales: Décaméron 5/5”. mythologica.fr (in French). Retrieved 2018-10-03.
10. Françoise Cazal. (2000). Boccace, Pétrarque, Nerli de Mezière, Metge, Timoneda, Trancoso, Deloney (in French). Presses Univ. du Mirail. ISBN 9782858165308.

11. Saydaliyeva G. “*Dekameron*” *dagi sabr timsoli Griselda*. NamDU Ilmiy axborotnomasi 2023yil 6-son ISSN:2181-1458 B 254-259

REFERENCES

1. Murtazoev, B.Kh. (1991) “*A Comparative Analysis of Alisher Navoi’s ‘Sab’ayi Sayyor’ and Khusrav Dehlavi’s ‘Haft Paykar’*.” Dissertation for the degree of Candidate of Philological Sciences. Tashkent-Termez, No. 08109 FN.
2. Larry D. Benson. (1987) “*The Riverside Chaucer*,” 3rd ed., Oxford University Press,
3. Navoiy, Alisher. (2022) “*Lison ut-Tayr*,” Youth Press,
4. Olimov, S.Kh. (2023) “*Comparative Poetics of ‘Lison ut-Tayr’: Synthesis, Nazira, and Translationality*.” Doctor of Philological Sciences (DSc) dissertation abstract. Samarkand,
5. Mallaev, N.M. (1976) “*History of Uzbek Literature*,” Vol. 1. Teacher’s Publishing House, Tashkent.
6. Olimov, S.Kh. “*A Journey to ‘Lison ut-Tayr’*.” Hurriyat newspaper. Retrieved from [Hurriyat](#)
7. Saydaliyeva, G. (2024) “*The Allegorical Symbols and Their Translation in Lison ut-Tayr by Alisher Navoi*.” News of the National University of Uzbekistan, 1(1.2.1), 190-193. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v1i1.2.1.1182>
8. Boccaccio G. *Decameron, Day 10, Tale 10* (2018) (Italian, translated into Modern English). Available at: sites.fas.harvard.edu. Retrieved 2018-10-03.
9. “*Légendes médiévales: Décaméron 5/5*.” (2018) mythologica.fr (in French). Retrieved 2018-10-03.
10. Cazal, Françoise. “*Boccace, Pétrarque, Nerli de Mezière, Metge, Timoneda, Trancoso, Deloney*” (2000) (in French). Presses Univ. du Mirail. ISBN 9782858165308.
11. Saydaliyeva, G. (2023) “*The Symbol of Patience in Griselda from Decameron*.” Namangan State University Scientific Bulletin, Issue 6, ISSN: 2181-1458, pp. 254-259.